



UDK: 316.77:001.12/18:140.8

Oybek M. QOSIMOV,
mustaqil tadqiqotchi, Namangan davlat universiteti, O‘zbekiston
E-mail: qosimovoybek85@gmail.com ORCID: 0009-0007-5677-0265

NamDU professori, f.f.d Z.Isaqova taqrizi asosida

THE SOCIAL IMAGE OF DISINFORMATION: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

The article interprets the social, epistemological, axiological, and ontological aspects of disinformation from a philosophical perspective, as well as its role in society, its relationship with the concept of truth, and its impact on human consciousness. It also reveals new forms of disinformation in the context of the modern information society, its influence on democratic processes, and its moral and ethical consequences. The theoretical and methodological foundations for combating disinformation are scientifically substantiated.

Keywords: disinformation, social philosophy, truth, epistemology, axiology, information society, manipulation, spiritual security.

СОЦИАЛЬНЫЙ ОБЛИК ДЕЗИНФОРМАЦИИ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье с философской точки зрения интерпретируются социальные, эпистемологические, аксиологические и онтологические аспекты дезинформации, её место в обществе, соотношение с понятием истины и влияние на человеческое сознание. Также раскрываются новые формы дезинформации в условиях современного информационного общества, её влияние на демократические процессы и духовно-нравственные последствия. Научно обоснованы теоретико-методологические основы борьбы с дезинформацией.

Ключевые слова: дезинформация, социальная философия, истина, эпистемология, аксиология, информационное общество, манипуляция, духовная безопасность.

DEZINFORMATSIYANING IJTIMOY QIYOFASI: FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada dezinformatsiyaning ijtimoiy, epistemologik, aksiologik va ontologik aspektlari, uning jamiyatdagi o‘rni, dezinformatsiyaning haqiqat tushunchasi bilan munosabati va inson ongiga ta‘sirini falsafa rakursida talqin etilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot jamiyati sharoitida dezinformatsiyaning yangi shakllari, uning demokratik jarayonlarga ta‘sirini va ma‘naviy-axloqiy oqibatlarini ochib berilgan. Dezinformatsiyaga qarshi kurashishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: dezinformatsiya, ijtimoiy falsafa, haqiqat, epistemologiya, aksiologiya, axborot jamiyati, manipulyatsiya, ma‘naviy xavfsizlik.

Kirish. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiya-larining jadal rivojlanishi insoniyat oldida yangi imkoniyatlar bilan birga murakkab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ulardan biri “dezinformatsiya” hodisasidir.

“Dezinformatsiya” qasddan buzib ko‘rsatilgan, noto‘g‘ri yoki aldanchi ma‘lumot bo‘lib, jamiyatda noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishi, ijtimoiy kelishmovchiliklar va hatto siyosiy beqarorlikka olib kelishi mumkin [1].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli asrda axborot oqimining hajmi va tezligi o‘shirib borayotgan bir paytda, “dezinformatsiya”ning tarqalish mexanizmlari ham murakkablashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjer va onlayn platformalar orqali yolg‘on ma‘lumotlar soniyalar ichida millionlab foydalanuvchilarga yetib boradi. Bu holat nafaqat individual ong, balki jamoaviy ong, ijtimoiy haqiqat tushunchasi va demokratik institutlarga jiddiy tahdid solmoqda[2].

“Dezinformatsiya”ni faqat texnik yoki kommunikatsion muammo sifatida ko‘rish yetarli emas. Uning chuqur ijtimoiy-falsafiy ildizlari mavjud bo‘lib, inson bilimining tabiati, haqiqatning ijtimoiy konstruksiyasi, erkinlik va mas‘uliyat muammolari bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida baholash o‘rinli. Shuning uchun “dezinformatsiya”ni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega [3].

Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, germeneytik, tizimli, qiyosiy tahlil, fenomenologik yondashuv va ijtimoiy-falsafiy refleksiya kabi usullaridan foydalanildi.

“Dezinformatsiya” tushunchasini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, avvalo, uning kategoriyaviy mazmunini aniqlashni talab qiladi. Falsafa tarixida haqiqat, yolg‘on, bilim va ishonch kabi

tushunchalar markaziy o‘rin tutgan. Dezinformatsiya “haqiqat, yolg‘on, bilim va ishonch kabi tushunchalarning murakkab o‘zaro ta‘sirida namoyon bo‘ladigan hodisadir” [4].

Ontologik jihatdan, “dezinformatsiya” reallikning buzilgan aksi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Qadimgi yunon faylasufi Afloturning “G‘or haqidagi afsona”sida tasvirlanganidek, inson soylarni “haqiqat” deb qabul qilishga moyildir. “Dezinformatsiya” zamonaviy shaklda ana shu “soylar”ning raqamli ifodasidir. Demak, “dezinformatsiya” real voqeelikni emas, balki uning manipulyatsiya qilingan obrazini taqdim etadi [1].

Epistemologik nuqtai nazardan, “dezinformatsiya” bilim nazariyasining markaziy muammolariga tegishli. Bilimning an‘anaviy ta‘rifi (Afloturning bilish nazariyasi bo‘yicha) “asoslangan haqiqiy ishonch” sifatida berilgan. “Dezinformatsiya” quyidagi uch komponentning buzilishiga olib keladi, ya‘ni u haqiqiy emas, asoslanmagan va ko‘pincha ishonchli manbalar niqobi ostida taqdim etiladi. Bu holat epistemik ishonch inqiroziga olib keladi, ya‘ni jamiyatda haqiqatni yolg‘ondan farqlash qobiliyati susayadi [3]. Ijtimoiy-falsafiy kontekstdan qaraganda, dezinformatsiya haqiqatning ijtimoiy konstruksiyasi muammosi bilan bog‘liq. Ijtimoiy konstruksiya nazariyasiga ko‘ra, haqiqat jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi kelishuv natijasida shakllangan tushuncha. Har bir jamiyatning o‘z haqiqati bo‘lib, o‘zgaruvchan xarakterga egadir. Dezinformatsiya esa jamiyatda qabul qilingan haqiqatni buzishga qaratilgan hodisa, deb baholash o‘rinli.

Jamiyatda muayyan g‘oya yoki mafkurani shakllantirish uchun siyosiy elitalar, ommaviy axborot vositalari, diniy tashkilotlar va boshqa ijtimoiy guruhlar o‘rtasida kurash boshlanadi. Aynan dezinformatsiya bu kurashning bir qismi

sifatida haqiqatni o'z manfaatini yo'lida qo'llaydi. Ko'pincha, dezinformatsiyaning tarqalishi haqiqatga bo'lgan ishonchni butunlay so'ndirib, ijtimoiy kaosni keltirib chiqaradi. Odamlar hamma narsaga shubha bilan qarab, haqiqatni yolg'ondan ajrata olmaydilar. Bu esa axloqiy parokandalik va siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Avstriyalik sotsiolog va faylasuf Piter Lyudvig Berger (1929-2017) hamda germaniyalik sotsiolog Tomas Lukman (1927-2016) ilgari surgan ijtimoiy haqiqat nazariyasiga ko'ra, "haqiqat insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi" [2]. Demak, aynan "dezinformatsiya" jarayonini buzib, "alternativ haqiqat"lar yaratish orqali ijtimoiy reallikni parchalashga xizmat qiladi. Bunga COVID-19 pandemiyasi haqidagi dezinformatsiya real misol bo'lib, vaktsinalarning zarari, COVID-19ning sun'iy ravishda yaratilgani, niqoblarning samarasizligi kabi yolg'on ma'lumotlar tarqatildi. Bunday "dezinformatsiya" odamlarning sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazib, vaktsinatsiya jarayonini sekinlashtirib, pandemiya qarshi kurashga to'sqinlik qildi. Oqibatda, odamlarning haqiqatga bo'lgan ishonchi susaydi, turli "alternativ haqiqat"larga bo'linib ketish holati yuzaga keldi. Bu holat postmodern falsafasida tasvirlangan "haqiqatning nisbiyligi" g'oyasining suiste'mol qilinishi sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

"Dezinformatsiya"ning falsafiy tahlilida uning "intentsional" (qasddan) xususiyatini ham hisobga olish zarur. Yolg'on ma'lumotning tasodifiy tarqalishi bilan qasddan manipulyatsiya maqsadida tarqatilishi o'rtasida sifat jihatdan farq mavjud. Masalan, siyosiy targ'ibotda noto'g'ri ma'lumotlar tarqatilishi mumkin, ammo bu doimo ham "dezinformatsiya"

"Genotsit haqida dezinformatsiyaning siyosiy manipulyatsiya vositasi sifatida qo'llanilishi (Ruanda misolida)".

mavzu	mazmuni
Muammoning tus olishi	Genotsid haqidagi dezinformatsiya siyosiy manipulyatsiya vositasi sifatida ishlatilishi mumkin.
Dezinformatsiyaning maqsadi	Aybdorlarni javobgarlikdan qochirish, siyosiy maqsadlarga erishish va xalqaro hamjamiyatning e'tiborini chalg'itishga xizmat qiladi.
Ruandagi voqea	1994 yilda Ruanda hukumati tomonidan siyosiy qudratni mustahkamlash va milliy adovatni davom ettirish uchun 800 000 ga yaqin tutsi va o'rtacha hut millatiga mansub aholi o'ldirilgan.
Genotsidni tashkil etilgan kuchlar	Genotsidni hutu ekstremistlari uyushtirgan.
Genotsiddan keyingi vaziyat	Ruanda hukumati tutsilar boshqargan.
Siyosiy natija	Hukumat "genotsidni inkor etishga qarshi kurash" baxonasida siyosiy qudratni mustahkamlab, muxolifatni yo'q qilgan.
Dezinformatsiyaning ta'siri	Genotsidni inkor etish qudratni saqlash va milliy adovatni davom ettirish uchun ishlatilgan.
Yakuniy oqibat	Bu holat Ruanda jamiyatida uzoq muddatli muammolarni keltirib chiqargan.

Epistemologiya "dezinformatsiya" hodisasini tushunishda markaziy o'rin tutadi. Dezinformatsiya inson bilim olish jarayoniga qanday ta'sir qiladi? U haqiqatni bilish imkoniyatiga qanday tahdid soladi? Bu savollarga javob berish uchun bir necha epistemologik kontseptsiyalarni ko'rib chiqish kerak.

Birinchiidan, dezinformatsiya epistemik ishonch muammosini keltirib chiqaradi. Zamonaviy jamiyatda inson ma'lumotlarni bevosita tekshira olmaydi. Shuning uchun soha mutaxassisarlari yoki ilmiy-tadqiqot institutlari xulosalariga ishonishga majbur bo'ladi. Dezinformatsiya esa bu ishonchni suiste'mol qiladi. Epistemolog L.Pouman ta'kidlaganidek, "epistemik ishonch bilim jamiyatining asosiy kapitali" [3]. Dezinformatsiya bu kapitalni yo'qqa chiqaradi, natijada insonlar haqiqatni topishda qiynaladi. Masalan, siyosiy dezinformatsiya saylovlar, siyosatchilar va hukumat institutlari haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatish orqali odamlarning siyosiy tizimga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Bu holat siyosiy "apatiya", saylovlarda ishtirok etmaslik va siyosiy institutlarga ishonchsizlikka olib keladi. Oqibatda, jamiyatning demokratik qadriyatlarga bo'lgan ishonchi yo'qoladi.

Ikkinchiidan, dezinformatsiya kognitiv dissonans va tasdiqlash xatoligi kabi psixologik mexanizmlar bilan o'zaro bog'liq. Insonlar o'z e'tiqodlariga mos keladigan ma'lumotlarni qabul qilish, qarama-qarshi ma'lumotlarni rad etishga moyildirlar. Dezinformatsiya tarqatuvchilar ana shu moyillikdan foydalanib, ma'lum guruhlar uchun "qulay" yolg'on ma'lumotlar yaratadilar. Bu holat epistemik qutblanishga olib keladi, ya'ni jamiyat turli

degani emas. Agar siyosatchi o'z qarashlarini ilgari surish uchun ma'lumotlarni bilib turib buzib ko'rsatsa, yoki yolg'on faktlarni keltirsa, raqibining obro'sini tushirish maqsadida u haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatsa, "dezinformatsiya" bo'ladi. Agar siyosatchi "ishonchli" deb bilgan manbadan xato ma'lumot keltirsa, "anglashilmovchilik" bo'ladi. Demak, "dezinformatsiya" doimo siyosiy ta'sir o'tkazish, iqtisodiy foyda olish, ijtimoiy kelishmovchilikni kuchaytirish kabi konkret maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Bu intentsionallik dezinformatsiyaning faqat epistemologik emas, balki axloqiy, ijtimoiy va siyosiy falsafaning muammosiga aylantiradi [5]. Misol uchun, genotsidga oid "dezinformatsiya" axloqiy muammo sifatida olinsa, genotsid sodir bo'lganini inkor etish yoki uning qurbonlari sonini kamaytirish "o'lganlarning xotirasini hurmat qilmaslik, ularning qadr-qimmatini toptash va tiriklarning azobini yanada kuchaytirish"dir. Bunday dezinformatsiya adolat va insoniylik tamoyillariga zid. 1995 yilning iyul oyidagi Bosniya urushida serb armiyasi tomonidan Srebrenitsa shahridagi 8000 dan ortiq bosniyalik musulmon erkaklar va bolalar o'ldirilgan. Aslida Srebrenitsa BMT tomonidan "xavfsiz hudud" deb e'lon qilingan, gollandiyalik tinchlikparvar kuchlari xavfsizlikni ta'minlash uchun shay edi. Lekin serb armiyasi shaharga hujum qilib, shaharni ishg'ol qildi. Tinchlikparvar kuchlar hech qanday qarshilik ko'rsata olmadi. Xalqaro jinoiy tribunal tomonidan genotsid deb tan olingan Srebrenitsa genotsidi Yevropa tarixi sahifalariga eng dahshatli voqea bo'lib muhrlangan. Genotsid ishtirokchilari uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilingan. Shunday bo'lsa ham, Srebrenitsa genotsidini inkor etish bosniyalik musulmonlarning og'rig'ini yanada kuchaytirib, ijtimoiy adovatni keltirib chiqargan.

"haqiqatlar"ga ishonadigan guruhlariga bo'linib ketadi [6]. Fikrimiz dalili sifatida iqlim o'zgarishiga qarshi dezinformatsiya va epistemik qutblanishni keltirish o'rinli. Iqlim o'zgarishiga qarshi dezinformatsiya tarqatuvchilar, ko'pincha, ilmiy dalillarni inkor etadigan yoki shubha ostiga qo'yadigan ma'lumotlarni tarqatishadi. Bunday ma'lumotlar iqlim o'zgarishining jiddiyligiga ishonmaydigan yoki bu muammoning mavjudligini inkor etadigan odamlar uchun "qulay" bo'ladi. Ular o'z e'tiqodlariga mos keladigan bunday ma'lumotlarni qabul qilishga va qarama-qarshi ma'lumotlarni rad etishga moyil bo'lishadi. Bu holat epistemik qutblanishga olib keladi, ya'ni jamiyat iqlim o'zgarishining jiddiyligiga ishonadiganlar va ishonmaydiganlarga bo'linib ketadi. Dezinformatsiya tarqatuvchilar odamlarning o'z e'tiqodlariga mos keladigan ma'lumotlarni qabul qilishga moyilligidan foydalanib, jamiyatni turli "haqiqatlar"ga ishonadigan guruhlariga bo'lib yuboradilar.

Uchinchiidan, "dezinformatsiya" post-haqiqat davrining markaziy xususiyatidir. Post-haqiqat tushunchasi haqiqatning ob'ektiv mezonlariga nisbatan emotiv va shaxsiy e'tiqodlarning ustunligini anglatadi. Dezinformatsiya post-haqiqat muhitida yanada samaraliroq tarqaladi, chunki bu sharoitda faktlarga asoslangan muhokama o'rmiga emotiv manipulyatsiyalar hukmronlik qiladi. Germaniyalik faylasuf va siyosiy nazariyotchi X.Arendt (1906-1975) totalitarizm, hokimiyat, siyosat, zo'ravonlik, inson huquqlari va javobgarlik kabi mavzularni tadqiq qilgan. Uning ta'kidlashicha, "totalitar rejimlar haqiqatni yo'q qilish orqali hokimiyatni saqlab qoladilar" [1].

Zamonaviy dezinformatsiya ham ana shu mantiqqa asoslanadi. Buning yorqin dalili sifatida Sovet Ittifoqida I.Stalin davridagi tarixni soxtalashtirish rejimini keltirsa bo'ladi. Bu davrda siyosiy raqiblarning mavqei butunlay yo'q qilingan, tanqidchilarning fikrlari o'zlari bilan birga butunlay tarix sahifalaridan o'chirilgan va faqat hukumatning manfaatiga mos keladigan g'oyalari ilgari surilgan. Ko'plab safdoshlarining inqilobdagi xizmati buzib ko'rsatilgan va "xalq dushmani" sifatida qoralangan. Aslida bu yerda tarixni soxtalashtirish orqali o'tmish haqidagi haqiqatni yo'q qilish maqsad qilingan edi. Haqiqatning buzib ko'rsatilishi odamlarning ona Vatani tarixiga bo'lgan ishonchini susaytirib, hukumatning "kommunizm" degan utopik g'oyasiga ko'r-ko'rona ishonishga majbur qilgan.

Tarixni soxtalashtirish hukumatga o'z hokimiyatini saqlab qolishga yordam bergan. Soxtalashtirilgan tarix hukumatning siyosatini oqlagan bo'lsa ham, oradan yuz yil ham o'tmay, haqiqat oshkor bo'ldi. Bu fikrlar X.Arendtning qarashlarini to'la tasdiqlaydi: totalitar rejimlar haqiqatni yo'q qilish orqali vaqtincha o'z hokimiyatini saqlab qoladi. Tarixni soxtalashtirish, senzura va targ'ibot kabi usullar jamiyat fikrini nazorat qilish va hokimiyatni mustahkamlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, dezinformatsiya "kollektiv bilim" muammosini keltirib, jamiyatning kognitiv "landshaft"ini deformatsiya qiladi. Zamonaviy pistemologiyada bilim individual emas, balki ijtimoiy konstrukt sifatida talqin etiladi, ya'ni u kollektiv muhokama, tajriba almashinuvi va tanqidiy refleksiya jarayonida shakllanadi. Yunon faylasufi Aflotunning "g'or haqidagi afsona"sida ta'kidlanganidek, haqiqatga erishish uchun jamiyat g'ordagi "soya"larga emas, balki tashqi dunyoning asl mohiyatiga intilishi kerak. Dezinformatsiya esa bu kollektiv jarayonni buzib, "epistemik tragediya"ga olib keladi: jamiyat ratsional asoslarga emas, balki soxta ma'lumotlarga tayanib, umumiy manfaatlariga zid bo'lgan qarorlar qabul qiladi [4]. Bu holat jamiyatning kognitiv salohiyatini cheklab, ekzistentsial xavflarni keltirib chiqaradi.

Nemis sotsiologi Yurgen Xabermasning kommunikativ ratsionallik nazariyasiga ko'ra, jamiyatda konsensusga erishish uchun ratsional muhokama va erkin fikr almashinuvi zarur. Dezinformatsiya esa bu jarayonni buzib, manipulyatsiya va propaganda orqali soxta konsensus yaratadi. Natijada, odamlar haqiqatni aniqlash va to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Sog'lom turmush tarzi haqidagi dezinformatsiya va kollektiv bilimning buzilishi bunga misol bo'la oladi. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzi haqida ko'plab yolg'on ma'lumotlar tarqatilmogda: "Glyutensiz parhez hamma uchun foydali", "Qizil go'sht zarar, faqat o'simlik mahsulotlarini iste'mol qilish kerak", "Suvni ko'p ichish sog'liq uchun juda muhim, hatto tana talab qilmasa ham" va hokazo. Bunday ma'lumotlarning aksariyati ilmiy asosga ega emas, va hattoki zararlidir. Dezinformatsiya odamlarning sog'lom turmush tarzi haqidagi ijtimoiy fikrini buzadi. Odamlar qaysi ma'lumotga ishonishni bilmaydi. Chunki turli manbalar bir-biriga teskari tavsiyalarni beradi. Odamlar noto'g'ri parhezga rioya qilish, zararli mahsulotlarni iste'mol qilish

yoki sog'lig'iga ziyon yetkazuvchi mashqlarni bajarish bilan yanada og'ir ahvolga tushish holatlari ro'y bermoqda. Sog'lom turmush tarzi haqida noto'g'ri ma'lumotlarga tayanib, nosog'lom qarorlar qabul qilishi turli kasalliklarning tarqalishi, umr ko'rish davomiyligining qisqarishi va ijtimoiy ahvolning yomonlashishiga olib keladi. Dezinformatsiya tarqatuvchilar yolg'on ma'lumotlar tarqatish orqali odamlarning sog'lom turmush tarzi haqidagi tushunchasini chalkashtirib, odamlarni noto'g'ri qarorlar qabul qilishga undaydi.

Xulosa. Demak, dezinformatsiya hodisasi nafaqat kommunikatsion yoki texnik muammo, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega muammodir. Dezinformatsiya jamiyatning epistemik asoslariga putur yetkazadi, ijtimoiy bilimlarni buzadi, axloqiy qadriyatlarni toptaydi va siyosiy manipulyatsiya uchun qurol sifatida xizmat qiladi. Bu holat zamonaviy jamiyat barqarorligi va taraqqiyotiga jiddiy tahdid soladi. Dezinformatsiya ontologik asosda reallikning buzilgan aksi, epistemologik kontekstda bilim jarayonini buzuvchi omil, aksiologik rakursda esa asosiy insoniy qadriyatlarga tahdid sifatida namoyon bo'ladi.

Dezinformatsiyaning tarqalishi kognitiv dissonans, tasdiqlash xatoligi va epistemik ishonchning yo'qolishi kabi psixologik mexanizmlar bilan chambarchas bog'liq. Bu esa jamiyatning qutblanishi, turli "haqiqat"larga ishonadigan guruhlarga bo'linib ketishiga olib keladi. Totalitar rejimlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, haqiqatni yo'q qilish hokimiyatni saqlab qolishning muhim vositasidir.

Dezinformatsiyaga qarshi kurashish nafaqat axborot xavfsizligi, balki insoniyatning ma'naviy-axloqiy salomatligi masalasidir. Falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, haqiqatga intilish, oqillikka erishish va axloqiy mas'uliyatni his qilish dezinformatsiyaga qarshi eng kuchli quroldir. Zamonaviy jamiyatning vazifasi - ushbu "qurol"ni har bir insonga yetkazish va undan foydalanish imkoniyatini yaratishdir.

Dezinformatsiyaga qarshi kurashish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, jamiyat a'zolarini tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va yolg'on axborotni aniqlashga o'rgatish maqsadida ta'lim dasturlariga mediasavodxonlik bo'yicha maxsus kurslar kiritish, aholi uchun amaliy seminar va treninglar tashkil etish;

ikkinchidan, haqiqatni yoritishga intiladigan professional jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida mustaqil axborot vositalarini moliyalashtirish va ularning faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish;

uchinchidan, dezinformatsiya tarqatuvchilarga qarshi qonuniy choralar ko'rish bilan birga, so'z erkinligini cheklamaslik va senzura yo'lga kirmaslik, qasddan yolg'on ma'lumot tarqatuvchi shaxslar hamda tashkilotlarni javobgarlikka tortish;

to'rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlarni dezinformatsiyaga qarshi kurashishga faol jalb qilish, ya'ni yolg'on ma'lumotlarni aniqlash va o'chirish, foydalanuvchilarni ogohlantirish hamda ishonchli axborot manbalarini targ'ib qilish.

ADABIYOTLAR

1. Arendt X. Yolg'on siyosatda: zamonaviy siyosiy hayotda yolg'on va haqiqat. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 45-48.
2. Berger P., Lukman T. Haqiqatning ijtimoiy konstruksiyasi: bilim sotsiologiyasiga oid risola. – Moskva: Progress, 1995. – B. 23-27.
3. Pouman L. Epistemik ishonch: bilim jamiyatida ishonch va mas'uliyat. – Oksford: Oksford universitet nashriyoti, 2020. – B. 112-115.
4. Yonas X. Mas'uliyat prinsipi: texnologik sivilizatsiya uchun etika. – Moskva: Ayris-press, 2004. – B. 78-82.
5. Karimov B.R. Axborot jamiyati falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2021. – B. 134-138.
6. Rahimov A.S. Zamonaviy dunyoda dezinformatsiya: ijtimoiy-falsafiy tahlil. // Falsafa va huquq. – 2022. – №3. – B. 56-63.
7. UNESCO. Media and Information Literacy: Reinforcing Human Rights, Countering Radicalization and Extremism. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – P. 34-37.